

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA PARSELYATIV VA ILOVALI QURILMALAR DERRIVATSIYASI

X.Ro'ziyev (SamDCHTI magistranti)

Annotation: *This article provides information on the derivation of selective and application devices in Uzbek and English.*

Key words: *Parcellation, paradigmatic, syntagmatic, syntactic devices*

Bizga ma'lumki, Parsellatsiya hodisasi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishdan oldin til elementlarining paradigmatic qatordan sintagmatik qatorga o'tishi bilan bog'liq, bo'lgan, ayrim masalalarga izoh berish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Chunki ilova qurilmalari ham, parsellativ qurilmalar ham yetakchi gap bilan til elementlari aloqasining ana shu ikki qirrasini qonun – qoidalari asosida munosabatga kirishadi. Agar paradigmatic munosabat ilova yoki parselyativ qurilmalar tarkibiy qismlarining til sistemasidagi o'ri bilan bog'liq bo'lsa, sintagmatik munosabat ularning nutqiy xususiyatlari bilan bevosita daxldor bo'lib, bunda eng asosiy muammosintaktik aloqa va uning shakllanish usullaridir.

Chunki, ketma – ket keladigan har qanday ikki gap yoki sintaktik qurilmaning mantiqiy jixatdan bir – biri bilan bog'liqligi yoki hech bo'lmaganda, ma'lum bir semantik aloqa bo'lishi muqarrardir. Sintaktik munosabat ko'p paytlarda huddi shu singari ikki yoki undan ortiq sintaktik qurilmalar doirasida yashirin holda bo'ladi. Ayniqsa mustaqil holda shakllangan va davomli ohang tinimi bilan ajratilgan sintaktik qurilmalar o'rtasida bog'lovchi vazifasidagi morfologik element ishlatilmagan bo'lsa, ularning sintaktik munosabatini aniqlash qiyinlashadi.

Masalan: *chigit ekilib bo'ldi.*

Dars boshlandi

Keltirilgan misoldagi ikki gap o'rtasida na mantiqiy bog'liqlik va na sintaktik munosabat ko'zga tashlanadi. Ammo, shunga qaramasdan, ular bitta sintagmatik qator zanjiri doirasida ketma – ket joylashmoqda.

Bu ketma – ketlikni berilgan gaplarning o'rinlari almashtirilgan taqdirda ham kuzatish mumkin.

Dars boshlandi.

Chigit ekilib bo'lindi.

Biroq berilgan gaplar o'rtasiga va bog'lovchisi kiritilsa, ularning nafaqat mantiqiy, balki sintaktik jihatdan ham uzviy aloqadorligi ko'zga tashlanadi. Demak, ular o'rtasida bog'lovchi vosita bo'lmaganda ham mantiqiy va sintaktik munosabatlar mavjud bo'lgan, degan xulosaga kela olamiz. Masalan bu ikki xabat mazmuni ifodasi bir – biriga muhit ta'sirida bog'liq bo'lishi ham mumkin. Boshqacha aytganda, darsning boshlanishi chigit ekilib bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun berilgan misolda bog'lovchisiz munosabat kuzatilsa, bog'lovchi qo'shilgandan keyin esa bog'lovchili munosabat yuzaga keladi xolos.

Zero sintaktik aloqa mavjud ekan, Grammatik munosabatlarning ham bo'lishi muqarrardir. “ bog'langan ” degan tushunchaning uzi ham ana shunga ishora qiladi. Ammo, o'zaro bog'langan gaplar, ergashish yo'li bilan bog'langan gaplardan farqli ravishda, aksariyat hollarda, sintaktik tuzilishiga ko'ra o'z qobig'ida nisbiy mustaqil bo'ladi.

Shuning uchun ma'lum bir matn tarkibidagi gaplarni yoki sintaktik qurilmalarni nafaqat semantik jixatdan, balki sintaktik jixatdan ham biri ikkinchisi bilan ma'lum darajada munosabatda bo'lishini alohida qayd etish lozim.

Misol uchun:

1)Brigadir Ergash oldinga ot choptirib keldi. Shitob bilan (Sh. Toshmatov. ishq yangilandi.87.)

2)Dadamdan xat keldi. Shimoliy qozog‘istondagi “mehnat tuzatish”

Koloniya-sida jazo muddatini o‘tayotgan dadamdan (U. Hoshimov Tushda kechgan umrlar, 57.)

Keltirilgan misollarning har ikkalasida ham parsellyatsiya xodisasini kuzatamiz.

Birinchi: Yetakchi gapda izoh berib kelayotgan Shitob bilan, va ikkinchi misolda Shimoliy Qozog‘istondagi “mehnat tuzatish” koloniya-sida jazo muddatini o‘tayotgan dadamdan tarzida shakllangan kengaytirilgan aniqllovchi qolipidagi sintaktik qurilmalar ana shu hodisa ifodasi uchun asos bo‘lmoqda.

Ko‘rinadiki, yolg‘iz bir gap doirasida bemalol ifodalanishi mumkin bo‘lgan fikr bo‘linib, parcha – parcha tarzida bayon etimoqda.

Shunga ko‘ra “parsellyatsiya” atamasining lug‘aviy ma‘nosi ham *bo‘linish yoki parchalanish* kabi tushunchalarni taqazo etadi. Tilshunoslarning parsellyatsiya hodisasiga berilgan ta‘riflari ham, garchi aynan bir xil bo‘lmasa-da, ana shu tushunchaga asoslanadi.

Parsellyatsiya hodisasi ta‘sirida ajratib berilayotgan qismni ilmiy tilda *parsellyat* deb nomlanadi. Parsellyat ergashib kelayotgan oldingi gap esa yetakchi yoki asosiy gap deb yuritiladi.

Boshqacha aytganda, parsellyat yetakchi gapning ataylab tushirib qoldirilgan ma‘lum bir bo‘lagini taqazo etadi. Bu bo‘lak og‘zaki nutqda oldindan o‘ylanmagan, rejalashtirilmagan holda vujudga kelganga o‘xshaydi. Ammo, sizningcha, parsellyat so‘zlovchi shaxs tomonidan nutq jarayonida ongli ravishda alohida ajratilib, bo‘rttirilib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov X.o‘zbek tilining amaliy grammatikasi. – T.: O‘qituvchi 1992.
2. Kaushanskiy B.A. A grammar of the english Language – M: ПРОСВЕЩЕНИЕ
3. www.ziyonet.uz.
4. www.ziyouz.uz.